

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

“TASDIQLAYMAN”



Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti rektori v.v.b.

S. Xodjaniyazov

2025 yil 29 " avgust

BAKALAVRIAT TALIM YO‘NALISHLARI TALABALARI UCHUN

«MATEMATIKA» FAN TO‘GARAGI

NIZOMI

Urganch - 2025 yil

I. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

to'garak – bilim va ta'lim sohalari hamda mutaxassisliklari bo'yicha ilmiy-ijodiy ishlarni maqsadli va tizimli asosda amalga oshirish uchun talabalar qiziqishiga, xohishiga asoslangan holda darsdan bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etiladigan auditoriyadan tashqari mashg'ulot shakli.

to'garak rahbari – oliy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchisi (katta o'qituvchi, dotsent yoki professor) bo'lib, to'garak ish rejasi va mashg'ulotlarini tashkil etish hamda uning samaradorligi uchun mas'ul shaxs.

to'garak a'zosi – o'z xohishiga ko'ra to'garak faoliyatida ishtirok etuvchi bakalavriat bosqichi talabalari.

mashg'ulotlar – to'garak doirasida o'tkaziladigan nazariy, amaliy, laboratoriya, loyiha va ijodiy ishlar hamda ko'rgazmali tadbirlar majmuasi.

ilmiy-uslubiy ish – professor-o'qituvchilar tomonidan talabalar ishtirokida olib boriladigan ilmiy-tadqiqot va ijodiy faoliyat, shu jumladan to'garak mashg'ulotlari.

auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar – dars jadvalidan tashqarida, qo'shimcha ravishda tashkil etiladigan ilmiy, ijodiy va o'quv faoliyatini ifodalovchi mashg'ulotlar turi.

samaradorlik ko'rsatkichlari – to'garak faoliyatining natijadorligini aniqlovchi ko'rsatkichlar (ilmiy-ijodiy ishlar, tanlov va olimpiadalardagi yutuqlar, matematika fani bo'yicha milliy va xalqaro sertifikatlar).

1.2. Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 7 maydagi "Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4708-sonli qarori asosida ishlab chiqilgan.

1.3. "Matematika" fan to'garagi (keyingi o'rinlarda — to'garak) kafedra qoshida faoliyat yuritadi.

1.4. To'garak universitet rektorining buyrug'i bilan tashkil etiladi.

1.5. To'garak talabalarning ilmiy izlanishga bo'lgan qiziqishi va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga, matematik tafakkurni rivojlantirish, murakkab masalalarni yechish ko'nikmalarini shakllantirish, fan olimpiadalari va tanlovlarga tayyorlash maqsadida tashkil etiladi.

1.6. To'garak faoliyati O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi Qonuni, Davlat ta'lim standartlari, vazirlik buyruqlari va mazkur Nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

II. TO'GARAKNING MAQSADI VA VAZIFALARI

2.1. To'garak quyidagi maqsadlarni ko'zda tutadi:

- Iqtidorli o'quvchilarni aniqlash va qo'llab-quvvatlash;
- Talabalarda fundamental matematik bilimlarni chuqurlashtirish;
- Ilmiy izlanish ko'nikmalarini shakllantirish;
- Iqtidorli talabalarni fan olimpiadalari va turli tanlovlarda ishtirok etishga tayyorlash;
- Talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatiga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytirish;
- Ta'lim jarayonida olingan nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish.

2.2. To'garak o'z maqsadlariga erishish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- Matematik analiz, Algebra va sonlar nazariyasi, Geometriya, Kompleks analiz, Funksional analiz, Kombinatorika bo'yicha chuqurlashtirilgan mashg'ulotlar o'tkazish;
- Olimpiada va musobaqalarga metodik tayyorgarlikni amalga oshirish;
- Ilmiy maqolalar, tezislari va loyihalar yozishga yo'naltirish;
- Yetakchi olimlar, mutaxassislar va amaliyotchilar bilan uchrashuvlar tashkil etish;
- Zamonaviy texnologiyalar, shu jumladan sun'iy intellektdan foydalanish asosida darslar tashkil etish;
- O'quvchilarning mustaqil ishlash madaniyatini rivojlantirish.
- Talabalarning Matematika fani bo'yicha milliy va xalqaro sertifikat olishga tayyorlash;

III. TO'GARAKNING HUQUQ VA ERKINLIKLARI

3.1. To'garak o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi me'yoriy hujjatlari hamda universitet ichki nizomlariga amal qiladi.

3.2. Qonunda belgilangan tartibda reklama ishlarini amalga oshirish va o'z faoliyatida ommaviy axborot vositalaridan foydalanish.

3.3. Yoshlar orasida ixtirochilik va kreativ g'oyalarini rivojlantirish, ilmiy-amaliy ishlarni olib borish hamda to'garak faoliyati haqida axborotni keng targ'ib qilish.

3.4. Respublikamizdagi OTMlar, ilmiy markazlar, zamonaviy korxona va tashkilotlar hamda jamg'armalar bilan ilmiy-ijodiy hamkorlik qilish.

3.5. To'garak imkoniyatidan kelib chiqqan holda mehnat bozori talablarini hisobga olib, buyurtmachi korxona yoki tashkilotlar bilan universitet o'rtasida xo'jalik shartnomasi tuzishi mumkin.

3.6. To'garak a'zolari universitetning ta'lim jarayonida ishtirok etish bilan bir qatorda mustaqil ilmiy va ijodiy ishlar olib boradilar.

3.7. To'garak faoliyati ochiqlik, shaffoflik va adolat tamoyillari asosida tashkil qilinadi.

IV. TO'GARAK FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA A'ZOLIK

4.1. To'garak fakultet dekani tavsiyasi asosida rektor buyrug'i bilan tashkil etiladi. To'garakni olib boruvchi rahbarlar fakultet dekanining taqdimnomasiga asosan ilmiy va pedagogik tajribaga ega professor-o'qituvchilar tayinlanadi.

4.2. Universitetning barcha bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari o'zlarining hohish va qiziqishlaridan kelib chiqqan holda o'zlari to'garakka a'zolik uchun ro'yxatdan o'tishlari mumkin.

4.3. To'garak a'zolari kafedra tomonidan ajratilgan maxsus jihozlangan auditoriyalardan, o'quv-texnologik asbob-uskunalaridan, shuningdek, Axborot-resurs markazi manbalaridan samarali foydalanish mumkin.

4.4. To'garak mashg'ulotlari uchun zarur bo'lgan o'quv qurollarini olib kelish va texnika xavfsizligi hamda sanitar-gigienik me'yorlarga rioya qilish.

4.5. To'garak faoliyati kafedra tomonidan ishlab chiqilgan o'quv dasturi asosida olib boriladi.

4.6. To'garak faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida to'garak ishtirokchilari soni 25 nafardan oshmasligi lozim. Oshgan holda to'garak ishtirokchilari kurslar kesimida alohida akademik guruhlariga ajratiladi.

4.7. To'garak rahbari Nizomda belgilangan majburiyatlarni muntazam ravishda bajarmagan taqdirda, to'garak mashg'ulotlarini sababsiz o'tkazmagan yoki ularning sifatini ta'minlamagan hollarda to'garak rahbarini lavozimidan chetlashtirish mumkin yoki shaxsiy arizasi asosida fakultet dekani tavsiyasiga binoan universitet rektori buyrug'i bilan yangi rahbar tayinlanishi mumkin.

4.8. To'garak faoliyati quyidagi hollarda tugatilishi mumkin:

- nizomda belgilangan maqsad va vazifalar bajarilmagan taqdirda
- talabalar yoki fakultet tashabbusi bilan faoliyatini davom ettirishga ehtiyoj qolmagan hollarda fakultet dekani tavsiyasi asosida universitet Kengashida ko'rib chiqiladi va rektorning tegishli buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi.

V. TO'GARAK A'ZOLARINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

5.1. Huquqlari:

- To'garak faoliyatida erkin ishtirok etish;
- Ilmiy rahbar tanlash va tadqiqot mavzusi bo'yicha maslahat olish;
- Olimpiada va tanlovlarda ishtirok etish;
- O'z ilmiy ishlari bilan turli tanlovlarda, ilmiy loyihalarda qatnashish;

5.2. Majburiyatlari:

- To'garak faoliyatida muntazam qatnashish;
- Mashg'ulotlarda intizomga rioya qilish;
- Ilmiy izlanishlarda halollik tamoyillariga amal qilish;
- Fan olimpiadalariga puxta tayyorlanish;
- O'qituvchi rahbar bergan topshiriqlarni o'z vaqtida bajarish.

VI. TO'GARAK RAHBARINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

6.1. To'garak faoliyatini tayinlangan kafedra professor-o'qituvchilari olib boradi.

6.2. To'garak rahbarining asosiy vazifalari:

- mashg'ulotlarni reja asosida tashkil etish va o'tkazish;
- talabalarni ilmiy izlanishlarga jalb qilish;
- fan olimpiadalari va tanlovlarga tayyorlash;
- to'garak faoliyati bo'yicha kafedraga va fakultet dekanatiga hisobot berish.

6.3. Mashg'ulotlar to'garak rahbari tomonidan o'quv dastur asosida ishlab chiqilgan taqvim ish rejasi asosida amalga oshiriladi.

6.4. Mashg'ulotlarning shakli to'garak rahbari tomonidan belgilanadi. Zarurat tug'ilgan hollarda qo'shimcha mashg'ulotlar o'tkazilishi mumkin bo'lib, to'garak a'zolari bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

6.5. To'garaklar auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar sifatida yuritiladi va to'garak olib boruvchi (rahbar)ning o'quv yuklamasiga dahldor emas.

VII. TO'GARAK FAOLIYATINING YO'NALISHLARI

7.1. Nazariy yo'nalish: Matematik analiz, Algebra va sonlar nazariyasi, Geometriya, Kompleks analiz, Funksional analiz, Kombinatorika bo'yicha chuqurlashtirilgan bilim berish.

7.2. Amaliy yo'nalish: Hisoblash texnikasi, dasturlash, matematik modellashtirish va amaliy masalalarni yechish.

7.3. Ilmiy yo‘nalish: Talabalarning maqola yozish, tezis va bitiruv malakaviy ishlari tayyorlash ko‘nikmasini shakllantirish.

7.4. Olimpiada yo‘nalishi: Talabalarni matematika bo‘yicha respublika va xalqaro olimpiadalarga tayyorlash.

7.5. Integratsion yo‘nalish: Fanlararo bog‘lanishni kuchaytirish, matematikaning fizika, informatika va iqtisodiyotdagi qo‘llanilishini o‘rganish.

VIII. TO‘GARAK FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH

8.1. To‘garak faoliyati universitet budjetdan tashqari mablag‘lari, homiylik mablag‘lari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladi.

8.2. Homiylik mablag‘lari asosan talabalarni rag‘batlantirish, kitob va adabiyotlar xarid qilish hamda olimpiadalarda va turli tanlovlarda ishtirok etish uchun yo‘naltiriladi.

8.3. To‘garak faoliyati uchun zarur jihozlar, kompyuter texnikasi va darsliklar universitet tomonidan ta‘minlanadi.

8.4. To‘garaklar olib borayotgan professor-o‘qituvchilarga o‘quv yili davomida oliy ta‘lim muassasasi rektorining buyrug‘i asosida byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan oylik maoshlariga 25 foizi miqdorida ustama haq to‘lanadi.

8.5. To‘garak rahbari faoliyati samaradorligiga qarab rag‘batlantiriladi (Matematika fani bo‘yicha xalqaro va respublika olimpiadalari g‘oliblarini tayyorlagan professor-o‘qituvchilarga bir marotaba oylik maoshining 100 foizi miqdorida ustama haq beriladi)¹.

IX. TO‘GARAK FAOLIYATINI NAZORAT QILISH

9.1. To‘garak faoliyati Ta‘lim sifatini nazorat qilish bo‘limi, dekanat va tegishli kafedra tomonidan nazorat qilinadi.

9.2. Har o‘quv semestri yakunida to‘garak rahbari o‘tkazilgan ishlar bo‘yicha tegishli kafedraga hisobot beradi.

9.3. To‘garak faoliyati to‘g‘risidagi hisobotlar fakultet kengashida muntazam muhokama qilib boriladi va universitetning rasmiy saytida ularning natijalari hamda samaradorligi yoritib boriladi.

9.4. To‘garak faoliyati samaradorligi talabalarning ilmiy va amaliy yutuqlari orqali baholanadi

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Matematika sohasidagi ta‘lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020-yil 7-maydagi PQ-4708-son qarorining 1-ilovasi 29-bandi

- Ilmiy-ijodiy natijalar;
- Olimpiada va turli tanlovlardagi yutuqlar;
- Tashkiliy faoliyat;
- Targ‘ibot va hamkorlik.

X. YAKUNIY QOIDALAR

10.1. Ushbu Nizom universitet Kengashida ko‘rib chiqilib, rektor tomonidan tasdiqlangandan so‘ng kuchga kiradi.

10.2. Nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar fakultet dekani taklifi asosida universitet Kengashi qarori bilan kiritilishi mumkin.

10.3. Nizom talablarining bajarilishi uchun fakultet dekani, kafedra mudiri va to‘garak rahbari mas‘ul hisoblanadi.

10.3. Mazkur Nizom bo‘yicha yuzaga keladigan nizolar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

Nizom Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti Kengashining
2025 yil 29-avgust dagi № 1 sonli
yig‘ilishida tasdiqlandi.